

## JISMONIY MADANIYAT SOHASIDA PEDAGOGIK FUNKSIYA VA MUHIM JIHATLARI.

**Boyboboyev B., p.f.n.dotsent, G'ulomov O', mus.izl., Qurbonaliyev J., talaba NamDU**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasb faoliyatiga tajriba, bilim, ko'nikma va malakalar, fan bo'yicha nazariy va uslubiy tayyorgarlik, pedagogika va psixologiyadan bilimi, shuningdek, maxsus kasb maxorati va qobiliyati haqida nazariy ma'lumot va amaliy tavsiyalar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Pedagogik faoliyatga va mehnatga layoqatlili, kasb mahorati, mutaxassislarini tayyorlash, sifatli ta'lim, barkamol shaxs, sog'lom turmush tarzi, maxsus bilim va mahorat, istiqbolli yo'nalish.

### ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ФУНКЦИЯ И ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ В ОБЛАСТИ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ.

**Бойбобоев Б., к.ф.н., доцент, Гуломов О', муз.изл., Курбаналиев Ж., студент НамГУ.**

**Аннотация:** В данной статье излагаются теоретическая информация и практические рекомендации об опыте, знаниях, навыках и квалификации педагога-жисмони, теоретической и методической подготовке в науке, знаниях педагогики и психологии, а также специальных профессиональных навыках и умениях.

**Ключевые слова:** Педагогическая деятельность и трудолюбие, профессиональные навыки, подготовка специалистов, качественное образование, всесторонне развитая личность, здоровый образ жизни, специальные знания и навыки, перспективное направление.

Jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasb faoliyatiga tajriba, bilim, ko'nikma va malakalar, fan bo'yicha nazariy va uslubiy tayyorgarlik, pedagogika va psixologiyadan bilimi, shuningdek, maxsus kasb maxorati va qobiliyatiga taalluqlidir.

Oliy o'quv yurtlarida bakalavrlari o'qitish jarayonida, o'qituvchi shaxsiyatini tavsiflaydigan qobiliyat, sifat, xususiyatlarni rivojlanishga aloxida e'tibor berilishi lozim. Bunda kasb egallashda nafaqat maxsus bilim va maxorat va boshqa sifatlarni xisobga olish kerak bo'ladi.

Pedagogik faoliyatning samaradorligida ruhiy jarayonlarning axamiyati katta, izchillik, tanqidiy fikrlash, bilish, o'tkir zexn, ijodiy tasavvur, xotira, diqqatning uyushqoqligi va kuzatuvchanlik, sezgirlik va mexribonlik, boshqa kishilarga ta'sir ko'rsata olish qobiliyati, bolalarga mehr, muxabbat va qiziqish extiyojini aks ettiradigan ruhiy-pedagogik munosabat va kuzatuvchanlik, xushmuomalik,

talabchanlik, maqsadga intilish, bag'rikenglik, o'zini tuta bilish, o'z-o'zini baxolash, mexnat faoliyatiga layoqatlilik va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Jismoniy madaniyat soxasida pedagogik fanlarni o'qitish funksiyasi pedagogik fanlarini o'qitish jarayonini moxiyatini ifoda etadi, vazifasi esa pedagogik fanlarni o'qitishning komponentlaridan biri hisoblanadi.

Metodika pedagogik fanlarni o'qitish jarayonining quyidagi uchta funksiyasini ajratib ko'rsatadi: ta'lim berish, tarbiyalash, rivojlantirish .

Ta'lim berish funksiyasi pedagogik qonunlarni o'qitish jarayonining talabalarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat. Jismoniy madaniyat jarayonida pedagogik fanlarni o'qitish natijasi sifatida bilimlarning ko'pligi, chuqurligi, tizimliliigi, anglanganligi, mustaxkamligi va amaliy xususiyat kasb etishi muhimdir. Bu kabi xolatlar fanlarni o'qitish jarayonining metodik jixatdan to'g'ri tashkil etilganligini ifodalaydi.

Fanlarni o'qitish jarayonida talabalar tomonidan o'zlashtirilgan nazariy bilimlar asosida xosil qilingan ko'nikma va malaklarning shakllanishi ham aloxida ahamiyatga ega.

Jismoniy madaniyat jarayonida pedagogik fanlarini o'qitishning rivojlantiruvchi funksiyasi, o'qitish jarayonida, bilimlarni o'zlashtirishda talabada rivojlanish sodir bo'lishini ko'rsatadi. Rivojlanish quyidagi yo'nalishlarda sodir bo'ladi: nutqni rivojlanishi, fikrlashi, shaxsning sensorli va harakatlanish sohalari, emotsional-irodaviy va extiyoj sababli sohalari rivojlanadi. To'g'ri tashkil etilgan ta'lim shaxsni xar doim rivojlantiradi, lekin o'qituvchi va talabaning shaxsiy xar tomonlama rivojlanishiga qaratilgan maxsus o'zoro munosabatlarida rivojlantirish funkiiyasi yanada samaraliroqdir.

Ta'limning talaba shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilganligi "rivojlantiruvchi ta'lim" tushunchasi bilan ifodalanadi.

Jismoniy tarbiya o'qituvchisi uchun yana muxim vazifalardan biri talabalar faoliyatini tashkil etishda ularning bilim olishi va rivojlanishining turli yosh davrlarda ruxiy- fiziologik xususiyatlarini bilish va xisobga olish zarur. SHu munosabat bilan ta'lim oluvchining o'quv-bilish faoliyatida quyidagi tamoyillarni ta'kidlab o'tish lozim:

- bilim, ko'nikma va malakalarni egallashda onglilik va faollikni oshishi;
- mustaqil bilish faoliyatini o'sishi;
- bilish faoliyatiga ijodiy yondashishni o'sishi;
- o'qishga qiziqishni kuchaytirish, idrok etish, qiziqishlarini shakllantirish.

Talabalarning bilish faoliyati, bilim, ko'nikma va malakalarni egallashi ruxiy va fiziologik qoidalar asosida bo'ladi. Pedagogik yondashuv asosida ularning quyidagi turlarini ko'rsatish mumkin:

- maqsadni anglash; faoliyatga qiziqtirish; idrok etish; tushunish; - uylab ko'rish (taxlil qilish); - ko'nikma va malakalarni shakllantirish; - ko'nikma va malakalarni qo'llash; - bilim, ko'nikma va malakalarni umumlashtirish va tizimlashtirish; - o'zlashtirishni talabaning o'zi nazorat qilishi.

Jismoniy madaniyat jarayonida pedagogik fanlarga maqsadli yo'naltirilgan o'quv faoliyati tushunchasi, talabalarning atrof olamni bilish, bilim va tushunchalarni o'zlashtirishga yunaltirilgan o'quv xarakatidir, bu xarakat maxsus turdagi faoliyat bo'lib, unda ta'lim va tarbiyaning maqsadlarini ongli ravishda bajarishga yo'naltiriladi. Natijada talabalarda o'zgarishlar kuzatiladi, ya'ni faoliyat talabaning o'zini o'zi o'zgartirishi bilan bog'liq. Bu shaxsini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lib, unda yo'naltirilgan ob'ekt, yo'naltirilgan sub'ektga aylanadi.

Ta'lim jarayonida maqsadli yo'naltirilgan o'quv faoliyati o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularning asosiylari quyidagilar;

- a). Shaxsini rivojlantirish va takomillashtirishga yo'naltirilgan faoliyat.
- b). Ta'limning asosiy mazmuni ongli ravishda yo'naltirilgan ta'limiy, rivojlantiruvchi, vazifalarni xal etishda xarakatining umumiy usuli;
- v). O'zlashtiriladigan aqliy xarakatlarni ongli shakllantirish, ta'limni mazmun jixatlarini uyg'unlashuvi asosda amalga oshirish;
- g). Ta'limni tashkil etishning ushbu usuli mazmunan umumlashtirish tamoyilini ijro etishni taqozo etadi, chunki bunda xodisalar yig'indisining umumlashgan shakli ajratiladi, keyingi o'zlashtirish jarayonida mavxumdan aniklikka qarab xarakat boshlanadi.
- d). Taqdim etilgan o'qitish usulining tarkibiy, ilmiy-nazariy xarakterda bo'lishi, talabalardagi xissiy-empirik fikrlash ilmiy-nazariy fikrlashni shakllanishiga to'sqinlik qiladi hamda ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarni bajarishni kiyinlashtiradi.

Maqsadli yo'naltirilgan o'quv faoliyati quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan iborat bo'lib, bilish o'zlashtirish va xarakatlarning umumlashgan usuli bilan bog'liq bo'lib, ta'limiy motivlar, o'quv vazifalari, o'quv faoliyatining asosiy birligi xisoblanadi, talabada maqsad va natija ta'lim sub'ekti sifatida o'zgarishlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan o'quv vazifalarni xal etish usuli bo'lgan o'quv xarakatlaridir.

Maqsad bilan yo'naltirilgan o'quv faoliyatning tarkibiy qismlari ta'lim jarayoni bilan bog'liq muayyan kontseptual yondashuvga asoslangan xolda shakllanadi. Xozirgi kunda bunday asos sifatida aqliy faoliyatni bosqichma-bosqich shakllanishi,

muammoli ta'lim va pedagogik faoliyatning psixologik strukturasi kabi nazariyalarda keng foydalanilmoqda. SHu nuqtai nazardan, o'quv faoliyatini pedagog nuqtai nazardan tizim sifatida talqin etuvchi universal pedagogik kontseptsiyani keng qo'llash maqsadga muvofiq.

Pedagogik faoliyatning vazifalari va maqsadlarini anglash ijobiy faoliyatning rivojlanishi pedagogik g'oyalarini shakllanishi, kasb extiyojlari darajasi bilan bog'liq, o'qituvchida ma'lum bir pedagogik ta'sirchanlik qobiliyat, uni bajarishga ongni yo'naltirishning shakllantirilganligi bilan ruhiy tayyorgarligi belgilanadi.

Jismoniy tarbiyada pedagogik faoliyatga va mexnatga layoqatliligiga tayyorlanganligi va jismoniy rivojlanishi, salomatligining muvofiqligi bilan aniqlanadi, o'qituvchi sharoitga rioya qilgan taqdiridagina pedagogik mexnatida o'zining ijodiy imkoniyatini uzoq vaqt davomida to'la qonli ravishda amalga oishirish sog'lom turmush tarzini tashkillashtirish sog'liqni mustaxkamlash ularning kasbida uzoq ishlashi, layoqatligi, ko'nikma va malakalarni egallashning sharoiti, talabalar bilan turli xil mashg'ulotlar o'tkazish zaruriy asos bo'ladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi qonuni" T.2023 y.
- 2.O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" Ma'rifat .T.,1998 y.
- 3.Asqarova O'.,Nishonov M.,Hayitboev M.Pedagogika.darslik.- T."Talqin",2015 y.
5. Boyboboev B.G. PROFESSIONALNO VAJNIE KACHESTVA SPORTIVNOGO TRENERA//PIOII.-2019.-C.105.
- 6.Boyboboev B.G.Ta'lim jarayonida jismoniy tarbiy o'qituvchisining psixologik komponentlari//INTERNATIONAL EDUCATION RESEARCH/ISSUE №1 2024 /NAMANGAN -2024.51 b.
- 7.Abdukhamidovich, Moydinov Iqboljon. "PHYSICAL AND MENTAL ACTIVITY OF STUDENTS AND IT EFFECTS OF DIFFERENT HORSES." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.4 (2023): 219-224.
- 8.Ibragimovich, Sultanov Usmon. "DYNAMICS OF FORMATION OF PHYSICAL DEVELOPMENT AND PHYSICAL TRAINING OF LONG DISTANCE RUNNERS." European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol 7.6 (2019)
- 9.Ismailovna, Y. F. (2024). The importance of new technologies in forming healthy life style of students at physical training lessons. International journal of social

science & interdisciplinary research issn: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 13(01), 34-37.

10. Шокиров Ш. Ф., Нажмиддинов А.И. (2023). Техничко-тактические приемы защиты и нападения в игре в настольный теннис. International scientific conference" innovative trends in science, practice and education 2(9), 41-47

11. Шодиев, Э., Ирматов, Ш., & Якубжонова, Ф. (2021). Jismoniy tarbiya darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish. Общество и инновации, 2(2/S), 683-687.

12. G'ayratovich, S. S. (2022). Development of volleyball sport, world championship olympic games. Asia pacific journal of marketing & management review issn: 2319-2836 Impact Factor: 7.603, 11(12), 51-54.

13. Якубжонова, Ф. И., & кизи Асқарова, М. У. (2023, November). Взаимосвязи физической и технической подготовки волейболистов. In international scientific conference" innovative trends in science, practice and education" (Vol. 2, No. 9, pp. 48-54).

14. Umarova, Z. U., & Ugli, Y. D. N. (2023). Innovative technologies and their application in sports.

15. Akramjonovich, Y. I., & Ismoilovna, Y. F. (2023). Fitness development and training in youth education. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 10(11), 492-495.

16. Umarov, A. A., & Umarova, Z. U. (2023). Talaba-yoshlarni jismoniy sifatlarini rivojlantirishda milliy va harakatli o'yinlarning o'rni. Scientific progress, 4(1), 260-265.

17. Саруханов, А. А., Азизов, М. А., & Муминов, Ш. И. (2022). Исследование функциональных показателей юных пловцов. Youth, science, education: topical issues, achievements and innovations, 1-6.

18. Urinboevna, U. Z., Burkhanovich, D. B., & Ismailovna, Y. F. (2022). New technologies for the development of strength qualities Youth. International journal of social science & interdisciplinary research issn: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(11), 220-224.

19. Akramjonovich, Y. I., & Ismailovna, Y. F. (2023). Development and Improvement of The Motor Qualities of Volleyball Players Based on The Educational and Training Process. Journal of Advanced Zoology, 44(S6), 1499-1503.

20. Ilyosovich, M. S. (2023). Improving physical education of students with fatigued health. International journal of social science & interdisciplinary research issn: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 12(10), 32-35.

21.G'ayratovich, S. S., & Akramjonovich, Y. I. (2023). Development principles of young sportsmen's strength by updated technologies. International journal of social science & interdisciplinary research issn: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 12(12), 32-34.

22.Dexqonov B.B. (2022). Spiritual Training of Young Athletes. International journal of social science & interdisciplinary research issn: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(04), 144-146.

23.Akramjonovich, Y. I., Azamovich, A. M., & Ilyasovich, M. S. (2022). Developing human thinking and moving speed through table tennis. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12(4), 164-165.

24.Umidovich, A. B. (2022). Legal grounds for the development of the sports industry in uzbekistan. Asia pacific journal of marketing & management review issn: 2319-2836 Impact Factor: 7.603, 11(11), 46-49.

25.Urinboevna, U. Z., Burkhanovich, D. B., & Ismailovna, Y. F. (2022). New technologies for the development of strength qualities Youth. International journal of social science & interdisciplinary research issn: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(11), 220-224.

26.Саруханов, А. А., Азизов, М. А., & Аминов, Б. У. (2023, January). Новые технологии для развития силовых качеств у студентов. In international scientific and practical conference " the time of scientific progress" (Vol. 2, No. 1, pp. 217-225).